



SURXON MILLIY MATOLARINING TURLARI VA ULARNING TAXLILI

Raximqulova Sarvinoz Abdurashid qizi

Termiz davlat universiteti, 190111. Termiz shahri,
"Barkamol avlod" ko'chasi 43-uy.

E-mail: sarvinozraximqulova1990@gmail.com

Sanginova Kamola

Termiz davlat universiteti, talaba
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18309214>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 18-yanvar 2026 yil
Nashr qilindi: 20-yanvar 2026 yil

KEYWORDS

*Janda matosi, qazaqi ko'ylak,
kuppi, chopon, jelak, chakmon,
kebanak, po'stin, olacha matosi.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Surxondaryo milliy matolari o'rganildi. Taxlil qilishda ularning tikilishiga e'tibor qaratdik. Matolari har bir turi o'zgacha mano kasb qilib ularning to'qilishi, rang, shakli murakkabligi bilan ham ajralib turadi. Surxon vohasida matolarining murakkab bo'lishi ranglar gammasining takrorlanmas jilosi boshqa vohalarda uchramasligi ularning shakliga ham katta etibor qaratilgan.

O'zbek xalqi an'anaviy kiyimlar boshqa xalqlari kiyimlar singari uzoq tarixiy jarayonlardan o'tib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar hamda urf-odat, marosim, an'analari ta'sirida yillar davomida o'tish bilan o'ziga xos xususiyatida shakllanib, rivojlangan.

Uzoq ijtimoiy-siyosiy, tarixiy davrlarni o'tishi bilan kiyimlar o'zgargan bo'lsada, ammo kiyimlarni bichish va tikish uslublari o'ziga xosligini davrlar o'tsada yo'qolmagan. Voha kiyimlari iqlim sharoitiga qarab turli hil kiyilgan. Tog'li hudud bilan cho'l mintaqalarida yashuvchi axolining liboslari va ko'p qavatligi farq qilgan. An'anaviy xalq kiyimlari davrlar osha rivojlanib shakllangan [1].

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Surxon vohasida kiyim matolari, asosan qo'l mexnati yordamida to'qilgan. Tadqiq sifatida olib borilayotgan hudud aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan ko'proq shug'ullanganligi uchun matolar paxta va jundan, ma'lum miqdorda esa tabiiy ipakdan tayyorlangan. Denov, Vaxshivor, Sangardak, Xonjiza, Sina, Sho'rchi, Qorliq kabi hududlarda teri va mo'ynaga ishlov berish, bosh, ustki va oyoq kiyimlar hamda shu kabi boshqa kiyimlar ishlab chiqarish o'ziga xos tarzda rivojlangan [2].

Grebenkin A.D, Maxkamova S.M, Mukimova R.G, Suxareva O.A. kabi o'lkashunoslarning ilmiy ishlarida Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonda uyda to'quvchilik mavjudligi va uning texnologiyalari haqida so'z boradi [3; 89-b, 4; 15-b].

Tarixiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, vohada erkaklar ustki kiyimi sifatida tanaga yopishib turadigan ko'ylak, chakmon, ishton hamda cho'qqidor namat telpaklar kiyilgan. Surxondaryo va Qashqadaryo quroqlari qadimda, asosan bolalar kiyimlarida qo'llanilgan. Keyinchalik bu texnika rivojlanib bordi va hunarmadchilikning ajoyib yo'nalishlaridan biriga aylandi. Surxon quroqlarining o'ziga xosligi shundaki, ularda yorqin ranglar ishlatilganligi va kashtalarning tikilganligidadir. Surxondaryo va Qashqadaryo quroqlari xam kashtalar kabi shakllarga ega bo'lib, ko'proq dumaloq va uchburchak shakllaridan foydalanilgan. Asosan qizil, yashil, sariq va ko'k ranglardan

tikilgan. Voha liboslarida qo'llanilgan turli ranglarga bilan hamda noodatiy bezaklari bilan ajralib turgan, tojik ayollar libosiga tikilgan kashtalar ham betakror bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Ayollar libosining old qismida dutor kashtalarni ko'rishimiz mumkin. Yeng uchi va etak qisimlarida o'simlik gullaridan kompazitsiyalarni ko'rishimiz mumkin. Ko'ylak va lozimlarni xam islimiy naqishli kashtalar tikilgan. Liboslarning matosi yorqin rangi tanlanib, tikiladigan kashtalar esa undanda yorqin iplardan tikilgan. Shundan, qirmizi, to'q sariq yoki och sariq rangli matoga yashilning och ranglisi, ko'k, qizil rangdagi kashtalarni tikilganida ayolni liboslari yanada ko'rkam va bashang bo'lgan [5].



1- rasm. Surxondaryoni Janda va Olacha matosi, Boysun xududida foydalanilgan, XXI asr

Surxon vohasida erkaklarning yengil kiyimlaridan biri asosan ko'ylak bo'lib, ko'ylaklar o'yma yoqa, yelka yoqa hamda kiftaki deb nomlanib, yoqalari qo'lda tikilgan hoshiyalar yoki jiyaklar bilan bezatilgan. Bo'yi tizzadan pastga tushirilgan bo'lib, yenglari keng hamda uzun bo'lgan. Bunday ko'ylaklar Markaziy Osiyoning boshqa xalqlarida ham mavjud bo'lgan. Erkaklarning kiyim tagidan kiyadigan yengil ich kiyimlaridan biri yaktak ko'ylakdir. Arxeolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan "Bolalik tepa" dan topilgan suratlardagi erkaklar kiyimlarida yaktak ko'ylak borligi o'rganilgan Yaktak ko'ylakning yoqasi ichidan to'rtburchak shaklda qo'shimcha mato qo'yilib, oldi ochiq bo'lgan. Yengil kiyimlardan bo'lgan tik yoqali ko'ylak, uzun va keng yenglari, bo'yi hamda uzun old yoqasi bilan farq qilgan. Tik yoqali ko'ylak o'lkamizning turli hududlarida turlicha nomlangan.[6]

Masalan, Zarafshon havzasi qipchoqlari "qazaqi ko'ylak" deb atashgan.

Erkaklarning qadimiy kiyimi bo'lgan guppi astar, avrali bo'lib, paxta solib qavilgan. Qozoqlarda esa "kuppi" deb atalib, tuya yoki qo'y juni solib qavilgan. Guppilar tizzadan balandroq yoki pastroq bo'lgan. Guppi haqida Mahmud Qoshg'ariy ham o'z asarida to'xtalib o'tgan.[7]

Voha erkaklari kiyadigan ishton cholvar, poyjoma deb atalib, uzun va keng bo'lib, lipa, og' (xishtak) hamda poychadan iborat bo'lgan. Ishtonning tikilish uslubi vohada deyarli bir xil bo'lgan. Xususan, lipasiga ishtonbog' o'tkazilib, og'i katta bo'lib, poycha oralig'ida osilib turgan. Poychalari esa tizzadan past, to'piqdan baland holda tikilgan. Erkaklarning ishtonlari asosan bo'zdan tikilgan.



2-Rasm. Janda (surxon milliy matosi).

Erkaklar ustki kiyimini chopon, jelak, chakmon, kebanak, po'stin tashkil etgan. Chopon turkiy xalqlarning asosiy ustki kiyimidir. Asosan erkaklar kiyimi hisoblanib, yozma manbalarda XV asrdan uchray boshlaydi. Tadqiq etilayotgan davrda Surxon vohasida choponlar uzun va keng bo'lib, avra-astarli ichiga paxta solib qavilgan. Choponlar tik yoqali oldi ochiq holatda bo'ladi. Tikishda yo'l-yo'l matolardan, vohaning Denov tumani Sina, O'shor, Kuyovsu qishloqlarida, Sariosiyo tumani Xufar, Maland, Kishtut qishloqlarida, Uzun tumani Xonjiza, Sarinova, Pushtikapa qishloqlarida qora rangli matodan foydalanilgan. Chopon to'g'ri tik holatda qaviladi. Etagi, yeng uchlari va yoqasiga chiroyli ko'rinishi hamda mustahkam bo'lishi uchun chiroz jiyak tikilgan. Choponlar ikki turda qalin paxtali qishki chopon va yupqa paxtali yozgi chopon bo'lgan. Vohada yo'l-yo'l bo'z chopon ya'ni olacha chopon, hitori qo'y junidan mato to'qilib, hitori chopon tikilgan. O'ziga to'q kishilar beqasam, kimxob choponlar kiygan.

Vohada chopon ya'ni to'n ustidan kiyiladigan yengil ust kiyimlardan biri jelakdir. Vohaning ayrim hududlarida "yaktak" deb atalgan. Jelak "tasho'n" nomi bilan M.Qoshg'ariy asarlarida keltirilgan. Jelak paxtasiz avra-astar yoki avradan iborat yengil kiyim bo'lib, yoshi katta kishilar chopon ustidan kiyib yurganlar. U kishiga ko'rk baxsh etish bilan birga choponlarni tezda kir bo'lishdan saqlagan.

Surxon vohasida tadqiq etilayotgan davrda yoz fasllarida chopon kiyilmasdan, ko'ylak ustidan jelak kiyilgan. Surxon vohasida aholining qadimiy kiyimi bo'lgan "chakmon" qo'y yoki tuya junidan xonaki usulda to'qilgan matodan tikilgan astarsiz, faqat avradan iborat, chaponga o'xshagan kiyimdir.

Chakmon keng va uzun tikilib, etaklari, yoqasi va yeng uchlari chiroz jiyak tikilgan. U chopon ustidan kiyilib, belbog' bog'lanmagan. Vohada chakmonning tivitli, bosma va qoqma kabi turlari bo'lgan. Chakmon Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy kiyimlaridandir.

Shuningdek, vohada chorvador aholi qish fasli uchun tuya junidan to'qilgan matodan ham do'ppi tikkanlar. Vohaning qo'ng'iroq, yuz urug'iga mansub aholisi do'ppini qalpoq deb atashgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki surxon milliy matolarini juda hilma-hil bo'lgan. Hozirgi kunda o'sha milliy matolarni qaytadan tikish texnikasini o'rganib zamonaviy kiyimlar yaratilsa milliy ananalarimizni tiklagan bo'lar edik.

Adabiyotlar:

- 1.Sodiqova Nafisa. O'zbek milliy kiyimlari. XIX -XX asrlar T.: Sharq 2003 y.150-b
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) y.
3. Эльмира Гюлью. Садынебесные и сады земные. Москва-2013.

4. Binafsha Nodir. An'anaviy xotin – qizlar libosi. Moziydan Sado jurnali. Toshkent - 2013.
5. U.S. Raxmatullayeva, S.A. Raximqulova. Surxondaryo kostyumida milliy elementlarning o'rni. O'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent – 2021
6. Абдуллаев Т.А., Ҳасанов С.А. Одежда узбеков (XIX-нач. XX вв.)-Т., 1978.
7. Жабборов И. Ўзбеклар. (анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). –Т., Шарқ. 2008.
8. Этнографические очерки материальной культуры узбеков. (конец XIX-начала XX вв.)-Т., 1981.
9. Турсунов С.Н., Пардаев Т.Р. Ўзбекистон тарихи ва маданияти – Сурхондарё этнографияси. -Тошкент., 2006.
10. S.A. Raximqulova, U.S. Rahmatullayeva, S.A. Arayeva SYMBOLIC MEANINGS AND METHODS OF EMBROIDERY International journal of social science & interdisciplinary research. ISSN: 2277-3630 Impact factor 429 vol. 11 NO. 06 (2022) june.

